

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**AZAMATOVA DILDORA SHUXRAT QIZI**

**INDIVIDUAL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNI KASBIY-  
METODIK TAYYORLASHNING TEXNOLOGIK ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01– Pedagogika nazariyasi. Pedagogik talimotlar tarixi.**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq-2026**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Azamatova Dildora Shuxrat qizi**

Individual ta’lim muhitida talabalarni kasbiy metodik tayyorlashning texnologik asoslarini takomillashtirish.....3

**Азаматова Дильдора Шухрат кизи**

Совершенствование технологических основ профессионально-методической подготовки студентов в среде индивидуального обучения .....28

**Azamatova Dildora Shukhrat kizi**

Improvement of the technological basis of professional and methodological training of students in an individual educational environment .....55

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....60

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**AZAMATOVA DILDORA SHUXRAT QIZI**

**INDIVIDUAL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNI KASBIY-  
METODIK TAYYORLASHNING TEXNOLOGIK ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01– Pedagogika nazariyasi. Pedagogik talimotlar tarixi.**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq-2026**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.Phd/Ped10672 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.cspu.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li  
pedagogika fanlari doktori (DSc)

**Rasmiy opponentlar:** Kaziyeva Turg'unoy Tursunbayevna  
pedagogika fanlari doktori, professor

Sadikova Shoista Akbarovna  
pedagogika fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:** Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "16" 05 soat 10<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: cspu\_kengash@umail.uz

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: (Manzil Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur kuchasi, 104- uy. Tel:(99870)712-25-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil « 06 » 05 kuni tarqatildi.  
(2026 yil « 06 » 05 da 21 - raqamli reyestr bayonnomasi).

  
U.N. Xodjamkulov  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

  
F.T. Rajabov  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi, p.f.d., dotsent

  
R.A. Eshchanov  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor



## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga metodik tayyorlashda innovatsion yondashuvlar, individual texnologiyalarining zamonaviy modellarini maqsadli hamda manzilli qo'llashga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Bu borada talabalarning kelgusidagi pedagogik faoliyatini prognozlashga o'rgatish, reflektiv ko'nikma va mustaqil ravishda metodik kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. YUNESKO tashkilotining XXI asr uchun oliy ta'lim to'g'risidagi Jahon deklaratsiyasi, Internationally accredited teacher training programs-IATTP (Canada, India) Xalqaro ilg'or tajribalarda pedagoglar tayyorlashning akkreditatsiyalangan dasturi, Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan "2030 yilgacha ta'lim konsepsiyasi"da butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish vazifasi belgilangan. Bu o'z navbatida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash talablarini ijtimoiy buyurtmaga moslashtirishsiz amalga oshmaydi. Shu bois, individual ta'lim muhitida talabalarini shaxsga yo'naltirilgan, differentsiallashgan ta'lim texnologiyalarini amaliy yo'nalgan tarzda tatbiq etishning metodik tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dunyoda Angliya, AQSH, Germaniya, Finlyandiya, Singapur, Koreya, Yaponiya kabi davlatlarning ilmiy tadqiqot markazlarida yangi didaktik vositalarni ishlab chiqish, kasbiy va kommunikativ faoliyatli modellarini loyihalashning didaktik tamoyillarini aniqlashtirishga doir qator ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratilmoqda. Talabalarni kasbiy faoliyatga metodik tayyorlashning asosiy komponenti sifatida kreativ fikrlash, o'zini namoyon qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish, innovatsion o'qitish texnologiyalari asosida ularning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishni taqozo etadi. Bu esa, bo'lajak pedagoglarda kasbiy madaniyat, pedagogik mas'uliyatni tizimli shakllantirishsiz amalga oshmaydi. Shu jihatdan talabalarda kasbiy faollik, kognitivlik, kommunikativlik, kasbiy mahorat, metodik tayyorlashni individual ravishda rivojlantirish usul hamda vositalarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarida individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan holda talabalarni kasbiy faoliyatga metodik tayyorlash, hozirgi zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish va metodik mahorati hamda ko'nikma va malakalarini takomillashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, pedagoglarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etish bo'yicha vazifalar belgilangan. Bu esa oliy ta'limda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq mutaxassislarni tayyorlash, o'quv dasturlarini modernizatsiyalash, talabalarni kasbiy faoliyatga yo'naltiruvchi samarali usul va omillar, tashkiliy-metodik, psixologik shart-sharoitlarini aniqlashtirishni hamda pedagogik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, Vazirlar Mahkamasining 2019 -yil 13-maydagi 391-son “Maktabgacha ta’lim myassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 14-apreldagi 213-son “Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 11-iyundagi 487-son “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror va farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda individual ta’limni tashkil etish, pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning metodik kompetentligini rivojlantirish muammosi bo‘yicha P.T.Abduqodirova, S.J.Turayev, Z.S.Qodirova, G.N.Ibragimova, N.I.Rejametova, I.I.Tuychiyeva, SH.A.Sodiqova, Z.S.Teshabayeva, G.A.Gaynazarova, L.K.Narimbayeva, M.T.Hamdama N.S.Shaizakovalar, ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchi va tarbiyalanuvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini rivojlantirish masalalari N.Azizxo‘jayeva, B. Qodirov, Sh.S.Sharipov, R.Ishmuhammedov, M.Inomova, D.Sharipovalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

MDH olimlaridan. N.Abashina, N.F.Gubanova, N.V.Lamexova, L.L.Lashkova, O.V.Malaxova, Ye.Y.Tishina, V.S.Pchelina hamda N.M.Shklyayeva tadqiqotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini monitoring qilish masalalarini, Ye.V.Zateyeva, V.Ye.Morozova, L.V.Klimina, L.V.Bex, T.Ye.Chernokova va Y.V.Skvorsova pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularni individual yondashuv asosida faoliyat yuritishga tayyorlash muammolarini tahlil qilganlar.

Xorijlik olimlar C.Rogers, B.Myunsterberg, D.Syuper, A.G.Maslou, A.Bandura, Dj.Rotter, Kate Berk Walsh, S.Kuger, K.H.Christiane, H.Gibbons, R.Kramer, H.G.Ogelman va F.R.Dolenclar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasida o‘quvchi

shaxsining ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olish, uning erkin rivojlanishi uchun qulay pedagogik muhit yaratish zarurligi, individual rivojlanishda o'z-o'zini boshqarish, refleksiya va shaxsiy faollik muammolarini o'rgangan.

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng ko'lamda tadqiq etilgan bo'lsada individual ta'lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi alohida monografik tadqiqot obyekti sifatida qaralmagan. Talabalarni kasbiy faoliyatga individual ta'lim muhitida metodik jihatdan tayyorlash muammosi mazkur dissertatsiya tadqiqotining zaruratini belgilab berdi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** individual ta'lim muhitida talabalarni kasbiy faoliyatga metodik tayyorlash bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

individual ta'lim muhitida talabalarni kasbiy faoliyatga metodik tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari va xususiyatlarini aniqlash;

talabalarni kasbiy faoliyatga metodik tayyorlash bo'yicha zamonaviy usul va texnologiyalarni takomillashtirish;

individual ta'lim muhitida talabalarni kasbiy faoliyatga metodik tayyorlash modelini takomillashtirish va amaliyotga joriy qilish;

individual ta'lim muhitida talabalarni kasbiy faoliyatga metodik tayyorlash mezonlarini aniqlashtirish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** individual ta'lim muhitida talabalarni kasbiy faoliyatga metodik tayyorlash jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Andijon davlat pedagogika instituti, Termiz davlat pedagogika universiteti va Chirchiq davlat pedagogika universitetidan jami 316 nafar talabalar jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** individual ta'lim muhitida talabalarni kasbiy faoliyatga metodik tayyorlash mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning metodlari.** Ushbu tadqiqotda uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keluvchi ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, kuzatish, pedagogik tashxis, pedagogik hodisalarning tizimli tahlili, matematik-statistik tahlil, natijalarni grafik tasvirlash usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

individual ta'lim muhitida talabalarini kasbiy-metodik tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari va xususiyatlari kasbiy rivojlanishni diagnostika qilish, maqsadli guruhlarining individual tavsiflarini o'quv bosqichi ustuvorligida intensiv monitoringda qo'llash asosida aniqlashtirilgan;

talabalarini kasbiy-metodik tayyorlashning zamonaviy usul va texnologiyalari o'quv-tarbiya jarayoniga adaptiv va sinektik yondashuvlar asosida integratsiyalash hamda akademik dinamika sintezi doirasida maqbullashtirish orqali takomillashtirilgan;

individual ta'lim muhitida talabalarini kasbiy-metodik tayyorlash modelini interfaol yondashuvlarning refleksiv, facilitatsion, vitagen, mental instrumentlarni talabalarni akademik tarektoriyasiga optimallashtirishning barqarorligini ta'minlovchi kreativ modifikatsiyalar elementini personal kiritish asosida takomillashtirilgan;

individual ta'lim muhitida talabalarini kasbiy-metodik tayyorlash mezonlari individual faoliyatning ijobiy dinamikligini kengaytirish asosida kasbiy sifatlarni tashxis etishning axborotli, faoliyatli va monitoring bosqichlarini mustaqil ta'lim, pedagogik amaliyot oldi mashg'ulotlariga personal darajali adaptivlashtirish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitishda talabalarni kasbiy metodik tayyorgarlik sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion ta'lim vositalar kompleksi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

individual ta'lim muhitida talabalarni kasbiy metodik faoliyatga tayyorlashda innovatsion ta'limni tashkil etish hamda baholash mezonlari, pedagogik-psixologik tamoyillarning tatbiqi, pedagogik shart-sharoitlari, innovatsion ta'limni shakllantirishda pedagogik turkum fanlarning integratsiyasi, hamda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodikasi amaliyotga tatbiq etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiq etilayotgan muammoga falsafiy hamda ilmiy-pedagogik yondashuv tadqiqot maqsadi, obykti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinovga jalb etilgan oliy ta'lim muassasalari soni talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov natijalari statistik ma'lumotlarga tayanilganligi va matematik statistik jihatdan qayta ishlanganligi hamda mavzu yuzasidan chop etilgan ishlar mazmuniga ko'ra izohlanadi. Tadqiqot muammosiga tizimli va izchil yondashuv, kasbiy rivojlanish jarayonining mantiqiy izchilligi, tajriba-sinov natijalari va ularning pedagogik tadqiqotlarga qo'yiladigan zamonaviy talablarga mosligi, individual yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va reprezentativligi ta'minlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati innovatsion nuqtai nazardan yondashgan holda talabalarni, kasbiy faoliyatga metodik tayyorlashning nazariy-pedagogik, psixologik asoslari, tamoyillari, bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlari va xususiyatlarining aniqlanganligi, zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning kasbiy rivojlanish mexanizmlarining takomillashtirilganligi, talabalarning kasbiy mobilligini rivojlantirishning didaktik jihatlarining takomillashtirilganligi, tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta'minlovchi zamonaviy yondashuvlarning ilgari surilganligi, oliy ta'lim muassasalarida individual va integrativ yondashuv asosida ta'limda sifat va samaradorlikni ta'minlash, o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish bo'yisha ilmiy-metodik tavsiyalarining ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlarning mazmun-mohiyatini takomillashtirish va professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari samaradorligini takomillashtirishga xizmat qilishi, tadqiqot natijasida aniqlangan

tamoyillar, mezonlar, ishlab chiqilgan pedagogik jarayon modeli, ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, ta'lim jarayoniga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Individual ta'lim muhitida talabalarni kasbiy faoliyatga metodik tayyorlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

individual ta'lim muhitida talabalarini kasbiy-metodik tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari va xususiyatlari kasbiy yetilishni diagnostika qilish, maqsadli guruhlarning individual tavsiflarini kurs ichida kurs ustuvorligida intensiv monitoringda qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar "Maktabgacha ta'lim – tarbiyani tashkil etish" darsligi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 23-sentyabrdagi 438-sonli buyrug'i bilan berilgan №438271-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisini kasbiy tayyorlashda kompetensiyaviy, integrativ yondashuvlar asosida shakllantirish mazmuni, shakllari, mexanizmlarini aniqlashga xizmat qilgan;

talabalarini kasbiy-metodik tayyorlashning zamonaviy usul va texnologiyalari o'quv-tarbiya jarayoniga adaptiv va sinektik yondashuvlar asosida integratsiyalash hamda akademik dinamika sintezi doirasida maqbullashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar "Maktabgacha ta'limda tarbiyaviy ishlar metodikasi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-sonli buyrug'i bilan berilgan №429-351-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, oliy ta'lim jarayonida talabalarni kasbiy faoliyatga bo'lgan motivatsiyasi ortishiga erishilgan;

individual ta'lim muhitida talabalarini kasbiy-metodik tayyorlash modelini interfaol yondashuvlarning reflektiv, facilitatsion, vitagen, mental instrumentlarni talabalarni akademik tarektoriyasiga optimallashtirishning barqarorligini ta'minlovchi kreativ modifikatsiyalar elementini personal kiritish asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filialida bajarilgan A1-XT 0-2997-sonli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning dolzarb masalalari" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filialining 2026-yil 25-yanvardagi 44-sonli ma'lumotnomasi) Natijada, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga metodik tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari kengaytirilgan;

individual ta'lim muhitida talabalarini kasbiy-metodik tayyorlash mezonlari individual faoliyatning ijobiy dinamikligini kengaytirish asosida kasbiy sifatlarni tashxis etishning axborotli, faoliyatli va monitoring bosqichlarini mustaqil ta'lim, pedagogik amaliyot oldi mashg'ulotlariga personal darajali adaptivlashtirish bo'yicha tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanali tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat", "Adabiy jarayon", "O'zbekiston yoshlari" nomli dasturlar senariysini tayyorlashda (2025 yil iyul va dekabr oylarida) foydalanilgan. («O'zbekiston 24» ijodiy birlashmasi» davlat muassasasining 2026 yil 30-yanvardagi 05-09-163-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim jarayonida talabalarni zamonaviy kasbiy bilimlar bilan qurollantirishga xizmat qiladigan pedagogik jarayonda qo'llash dasturini ommalashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Tadqiqot 2 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan: O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 12 ta (respublika jurnallarida 5 ta, xorijiy jurnallarda -7 ta ) maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalangan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 146 betni tashkil qiladi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obykti aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning "**Individual ta'lim muhitida talabalarni kasbiy-metodik tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida talabalarni kasbiy-metodik tayyorlash dolzarb pedagogik muammo ekanligi ilmiy asoslangan, individual ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning o'rni, talabalarni kasbiy-metodik tayyorlashning didaktik komponentlari tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro talablardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan bilimli, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, keng tafakkurli, malakali, shu bilan birga shaxsiy va kasbiy sifatlari shakllangan barkamol kadrlarni tayyorlash maqsadini ko'zlaydi. Chunki globallashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvchan hamda mamlakatning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishiga o'z hissasini qo'sha oladigan mutaxassislarini tayyorlash ta'lim tizimining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Talabalarning individual xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishga yondashuvni o'zgartirish, ta'lim trayektoriyasini shaxsning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda erkin tanlash imkonini berish - shaxs ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ta'limning haqiqiy yo'nalishga burilishi hisoblanadi. Shu bilan birga, tanlash erkinligi talabaning ta'lim faoliyati natijalari uchun shaxsiy javobgarligi bilan uyg'unlashadi va bu uning imkoniyatlarini anglab yetishiga, shaxsiy mustaqilligining haqiqiy shakllanishiga yordam beradi. Hozirgi kunda texnika va texnologiyaning kun sayin rivojlanib borishi, bilimlarning tezlik bilan yangilanishi bo'lajak pedagoglardan zamonaviy sharoitlarga moslashish ko'nikmasiga ega bo'lish hamda yangi bilimlarga intilishni talab etadi. Bu esa talabalarni mustaqil izlanishga va ishlashga, kasbiy hamda hayotiy muammolarni mustaqil yechib unga ijodiy yondashishga o'rgatish zaruriyatini tug'diradi.

“Individual” tushunchasi lotincha bo‘lib, “yakka tartibda”, “yolg‘iz” va “maxsus shug‘ullanish” ma’nolarini bildiradi.

Individuallashtirish va differensiallash g‘oyasini ilk bor, individual va umumsinf (guruh) o‘quv faoliyatini birlashtirish lozimligini Y.A.Komenskiy o‘zining “Buyuk didaktika” asarida asosladi, bu uning sinf-dars ta’lim tizimida aks etadi.

Individual o‘qitish – bu o‘quv jarayonini tashkil etishning shakli bo‘lib, bunda pedagog talabalar bilan yakka-yakka shug‘ullanadi, talaba o‘quv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzluksiz mustaqil ta’lim oladi. Individual o‘qitishning afzalliklari: pedagogik jarayonning talaba qobiliyatlariga moslashuvchanligi imkoniyatidir. Bunda talabaning bilim olish darajasi doimiy monitoringini amalga oshirish va zaruriy tuzatishlar kiritish natijasida maqbul pedagogik jarayon tashkil etiladi.

R.A.Mavlonov fikricha, individual yondashish – bu pedagogik tamoyilga ko‘ra, pedagogik jarayonda pedagogning talabalar bilan o‘zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida talabaning rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.

Dj.I.Trampning ta’kidlashicha “mustaqil faoliyat turlicha talqin qilinishi mumkin. Bu- talabaga o‘qish jarayonida kengroq erkinlik berish imkonini yaratadigan ta’limni tashkil etishga qaratilgan harakatdir”.

Ushbu nazariyalarga tayangan holda biz “individual ta’lim”, “metodik faoliyat”, individual ta’lim muhitida metodik faoliyat tushunchalariga mualliflik ta’rifi ishlab chiqdik.

*Individual ta’lim* - - bu talabaning individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash orqali intellektual, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan, differensial va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida amalga oshiriladigan ta’lim shakli.

*Metodik faoliyat* - ta’lim mazmunini ilmiy-metodik jihatdan yangilash, pedagogik muammolarni xal etishda tarbiyachilarga yordam ko‘rsatish, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish.

*Individual ta’lim muhitida metodik faoliyat* - talabalarning individual ta’lim trayektoriyasi asosida kasbiy-metodik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan, mustaqil ta’lim, pedagogik hamkorlik va reflektiv tahlil uyg‘unligida amalga oshiriladigan uzluksiz pedagogik jarayon.

Bo‘lajak pedagoglarning metodik kompetentligi uning asosiy faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Uning mazmuniga pedagogik jarayonni tashkil etishga doir kundalik ishlar kiradi. Metodik faoliyat, shuningdek, ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning ilmiy-nazariy, tashkiliy-metodik, psixologo-pedagogik jihatlarini tizimlashtirish va chuqurlashtirishga qaratilgan ishlarni ham nazarda tutadi.

Pedagoglarning “metodik kompetentlik” tushunchasi mohiyatini aniqlashda kasbiy kompetentligini integrativ kasbiy-shaxsiy tuzilma sifatida ko‘rib chiquvchi bir qator psixologo-pedagogik tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga ega.

A.K.Markova ishlarida kompetentlikning quyidagi tarkibi belgilanadi: bilimlar, ko‘nikmalar, pozitsiya (qarashlar), shaxsiy xususiyatlar.

Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga metodik tayyorlash muammosi holati tahlili quyidagilarni aniqlashga imkon berdi:

- mutaxassislarni kasbiy faoliyatga metodik tayyorlashning ba'zi jihatlari o'rganilgan va tadqiq etilgan bo'lsa-da, bugungi kunda bu muammo dolzarbligicha qolmoqda;

- o'tkazilgan tahlillar talabalarni kasbiy faoliyatga metodik tayyorlash muammosini tadqiq etishning bir nechta yo'nalishlarini ajratishga imkon berdi: kasbiy madaniyat, tarbiyaviy qadryatlar, loyihalash faoliyati, bilish faoliyatini va kasbiy tayorgarlik ko'nikmalarini, kasbiy kompetentligini shakllantirish; axborot texnologiyalarini qo'llash, tarbiyaviy faoliyatga oid bilim, ko'nikma va malakalar sifatini oshirish; metodik tayyorgarligini rivojlantirish;


- talabalarni kasbiy faoliyatga metodik tayyorlash quyidagilar orqali amalga oshirilgan: fanni o'qitishning texnologik modelidan foydalanish; o'quv materialini bayon etishda tuzilmaviy – mantiqiy sxemani qo'llash; o'quv fani fundamental tushunchalari invariantini shakllantirish metodikasi; pedagogikaning nazariy-metodik asoslari; tarbiyaviy ishlar sifatini pedagogik o'lchash texnologiyasi.

- bo'lajak pedagoglarning innovatsion ta'lim asosida kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish maqsadida zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, ba asoslarini ishlab chiqish, psixologik-pedagogik jihatlarni aniqlash hamda metodik tayyorgarlik holatini aniqlovchi mezonlarni asoslashni taqozo etadi.

Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda quyidagilar muhim hisoblanadi: shaxsiy sifatlar va yo'nalganlik (ehtiyoji, qiziqishi, qadriyatlarini yo'nalishi, motivatsiya); ma'lumot darajasi (bilimi, ko'nikma va malakalarini doimiy ravishda boyitishga intilishi va mahorati); tarbiyalanganligi darajasi (ma'naviy, estetik, jismoniy, kasbiy, madaniy); ijtimoiylashish (kasbiy va ijtimoiy faoliyatini tashkil etishga tayyorligi, bilim olishni davom ettirish, ijtimoiy qoidalar va qadriyatlarni idrok qilish); madaniyatlilik (ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni idrok qila olishi, intellektual, iqtisodiy va ekologik madaniyati, aqliy, jismoniy va mehnat madaniyati, munosabatlari mazmuni va xulq-atvori).

Tadqiqotimizda bo'lajak pedagoglarning metodik kompetentligi quyidagicha tavsiflanadi, ya'ni integrativ-funksional tuzilma bo'lib, u kasbiy (obektiv zarur) bilim va ko'nikmalar, psixologik-pedagogik, predmet va metodik bilimlar hamda faoliyatning turli yo'nalishlarida (tashkiliy, pedagogik, metodik, tadqiqotchilik va boshqalar) qo'llaniladigan malakalarni o'z ichiga oladi.

Pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorgarlik – murakkab tuzilishga ega jarayon bo'lib, negizini ijobiy munosabat, motivlar va o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar, tarbiyachi kasbining qadriyatlarini tashkil etadi. Ushbu tayyorgarlik tarkibiga shaxs xarakterining kasbga taalluqli jihatlari, pedagogik layoqat, kasbiy pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi, amaliyotga qo'llashga imkon beradigan muayyan tajribalar kiradi.



**1-rasm. Talabalar metodik faoliyatning didaktik tuzilmasi**

Pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan talablardan kelib chiqib, talabalarning metodik tayyorgarligi didaktik jihatdan o'zaro uzviy bog'liq tarkibiy qismlar asosida tizimlashtirildi (1-rasm). Ushbu tuzilma metodologik, gnoseologik, kommunikativ, loyihalash, konstruktiv va tashkilotchilik komponentlarini qamrab olib, ularning har biri kasbiy faoliyatda muhim funksional vazifani bajaradi.

1-jadval

**Talabalar metodik faoliyatning didaktik tuzilmasi jadvali**

Komponent nomi	Mazmuniy tavsifi	Asosiy funksional vazifalari
<b>Metodologik komponent</b>	Pedagogik faoliyatni ilmiy asosda anglash, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va konseptual g'oyalarga tayangan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tushunish	Ta'lim jarayonining ilmiy-metodologik asoslarini belgilash, kasbiy qarorlar qabul qilishga metodik tayanch yaratish
<b>Gnoseologik komponent</b>	Maktabgacha ta'lim mazmuniga oid bilimlar, o'quv dasturlari, DTS va metodik manbalarni tahlil qilish va o'zlashtirish	Ta'lim mazmunini bilish, tahlil qilish va baholash, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish
<b>Kommunikativ komponent</b>	Pedagogik muloqotni samarali tashkil etish, bolalar bilan hamkorlikka asoslangan ijtimoiy-psixologik muhit yaratish	Ta'lim jarayonida subyektlararo muloqotni ta'minlash, bolalarning hissiy holati va faolligini qo'llab-quvvatlash
<b>Loyihalash komponenti</b>	Mashg'ulotlarning maqsad, vazifa, mazmun va kutiladigan natijalarini oldindan rejalashtirish	Ta'lim jarayonini tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda loyihalash
<b>Konstruktiv komponent</b>	O'quv axborotini tanlash va qayta ishlash, metod, vosita va didaktik materiallarni ishlab chiqish	Loyihalangan ta'lim jarayonini real pedagogik faoliyatga tatbiq etish
<b>Tashkilotchilik komponenti</b>	Mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari faoliyatlarni boshqarish, pedagogik muhitni tashkil etish	Ta'lim jarayonining uzluksizligi, izchilligi va samaradorligini ta'minlash

Mazkur komponentlar asosida shakllangan bilim va ko'nikmalar metodik faoliyatni loyihalashda o'z ifodasini topadi. Ya'ni, talabalar mashg'ulotlarning maqsad va vazifalarini aniqlash, ularning mazmuni va kutiladigan natijalarini oldindan belgilash orqali ta'lim jarayonini loyihalaydi. Loyihalash jarayoni konstruktiv faoliyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda o'quv axborotini tanlash va qayta ishlash, metod va vositalarni belgilash hamda mashg'ulot ishlanmalarini ishlab chiqish amalga oshiriladi. O'z navbatida, konstruktiv faoliyat natijalari tashkilotchilik kompetensiyalari orqali amaliyotga tatbiq etiladi. Bu jarayonda ta'lim oluvchilarning mustaqil bilish faoliyatini tashkil etish, pedagogik muhitni boshqarish, mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari faoliyatlarni muvofiqlashtirish, shuningdek, yuzaga keladigan pedagogik vaziyatlarga moslashuvchan yondashish ta'minlanadi. Talabalarni metodik tayyorgarligining didaktik tuzilmasi tarkibidagi metodologik, gnoseologik, kommunikativ, loyihalash, konstruktiv va tashkilotchilik komponentlari o'zaro dialektik birlikda namoyon bo'lib, ta'lim mazmuni samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan yaxlit kasbiy-pedagogik tizimni tashkil etadi.

Dissertatsiyaning **“Individual ta'lim muhitida talabalarni kasbiy-metodik tayyorlashning tayanch tushunchalari va zamonaviy tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida kredit modul tizimiga asoslangan o'quv muhitini prognostik modellashtirish, individual ta'lim muhitida talabalarni kasbiy-metodik tayyorlashning takomillashgan modeli hamda texnologik tizimi tadqiq etilgan.

Individuallashtirish jarayoni mexanizmlarini tadqiq qilish shuni ko'rsatdiki, inson rivojining yo'nalishi shaxsga xos xususiyatlarga ega. Shaxs rivoji-bu tashqi omillar ta'siri emas, balki shaxsning o'zi harakatga kelishi, ya'ni turli munosabatlarga chuqur jalb etilgan holda rivojlanadi. Bo'lajak pedagog shaxsi shakllanishining asosiy sharti uning shunday faoliyatga jalb etilishidirki, bunda o'zi uchun hayotiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishi, jarayonda ichki qayta qurilishni boshdan kechirishi, hamda har tomonlama munosabatlarga kirishi talab etiladi.

Oliy ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim orqali talabalar o'z-o'zini rivojlantirishga va shu orqali kasbiy-metodik faoliyatga yo'naltiriladi. Ushbu jarayonda kredit modulli ta'limga tayanish zarurati tug'iladi. Chunki, talabalarning harakatchanligi, ta'lim trektoriyasi, fanlarni ehtiyojiga ko'ra tanlash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, talabaga ta'lim ma'lumotlaridan cheksiz foydalanish, fanlar, o'qituvchilar, o'quv dasturlarini tanlashda ko'proq erkinlik va harakatchanlik beriladi. Talaba shaxsiy va kasbiy rivojlanish dasturi asosida mustaqil ravishda bilim oladi. Ta'lim jarayonidagi individuallashtirishni pedagogik jarayon sifatida tasavvur etish mumkin, ichki va tashqi jihatlarining o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'siri bilan xarakterlanadi.

Individuallashtirishning tashqi tomoni- ta'lim jarayonining mazmuni va shakllarini talabaning individual xususiyatlariga moslashtirish, individualligini rivojlantirish maqsadida pedagogik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash, shuningdek turli o'zgarishlarga tayyorlash va o'z-o'zini yaxshilashga undaydigan motivatsiyani shakllantirishdan iborat. Individuallashtirishning ichki tomoni - bu talabaning o'z individual intilishlari, hayotiy strategiyalarini shakllantirish, shaxs sifatida rivojlanish yo'lini belgilashga qaratilgan ichki harakatlaridir. Ichki individuallashtirishning asosiy belgisi-shaxsning ongli ravishda o'zini o'zgartirishga intilishi. Har bir talaba ta'lim

muhitini qabul qiladi va o'zlashtiradi, shaxsning ichki dunyosi kengayishiga olib keladi va u rivojlanishning ichki manbaiga aylanadi. Bu jarayon "talabadan boshlanadi" ya'ni individuallikni amalga oshirish, ijodiy o'zini ifodalash, ta'limiy va kasbiy rejalarni shakllantirish bilan namoyon bo'ladi. Turli bosqichlarda ichki va tashqi individuallashtirishning o'zaro nisbati talabaning individual va shaxsiy o'zgarish darajasini belgilaydi, uni o'zini anglashga, o'z yo'lini belgilashga bo'lgan ehtiyojini rag'batlantiradi. Individuallik va subyektlik shakllana borgani sayin, tashqi individuallashtirishga bo'lgan ehtiyoj kamayadi, ichki individuallashtirishning ahamiyati esa oshib boradi.

Individuallashtirishni ikki tomonlama jarayon sifatida ko'rib chiqish mumkinligini inobatga olgan holda, biz shartli ravishda uning vositalarini ikki guruhga ajratdik. Keltirilgan har ikkala vosita ham bir-biri bilan chambarchas bog'liq ularni qiyosiy tahlilini jadvalda keltiramiz (2-jadval).

**2-jadval.**

### **Individuallashtirish vositalari**

<b>Tashqi (o'qituvchi tashabbusi)</b>	<b>Ichki (talaba faolligi)</b>
Diagnostika tashkil etish va talabani diagnostika qilishga undash	O'zini diagnostika qilish
Tanlov va muammoli vaziyatlar yaratish	O'zini tahlil qilish, refleksiya
Individual ta'limiy faoliyatni rejalashtirishga yo'l-yo'riq berish	Faoliyatga maqsad qo'yish
Maqsad qo'yish, tahlil va baholashni rag'batlantirish	Mustaqil tanlov imkoni
Muammoli savollar qo'yish	O'z yo'lini belgilash (anglash)
Texnologik xarita, metodik vositalar	O'z-o'zini baholash
Individual ta'lim dasturlari tuzishga yo'naltirish	Portfolio yaratish
Individual marshutlarni ishlab chiqish hamkorlikda	Faoliyatini o'zi rejalashtirish

Mustaqil tarzda reja tuzish talabalarda faoliyatini to'g'ri tashkil etishga asos bo'ladi. Agar talaba to'liq mustaqil bo'lsa, u o'z faoliyatini ongli ravishda belgilagan maqsadga asoslanib o'zi rejalashtiradi, ya'ni o'zining individual ta'lim rejasi yoki dasturini tuzadi. Pedagogning vazifasi talabaning faoliyatiga motivatsiya berish, o'zini anglash va o'zini belgilash usullarini tanlash, tanlagan vaziyatlarini yaratish, muammoli ya'ni yo'naltiruvchi savollar orqali qiyinchiliklarda talabaga yordam

ko'rsatish, ularni individual tarzda maqsad qo'yishga, tahlil qilish va refleksiya qilish faoliyatiga jalb qilishdan iborat.

Bugungi kunda o'qitish tizimiga kiritilgan o'zgarishlar ya'ni kredit modul tizmining oliy ta'lim muassasalariga keng tadbiiq etilishi natijasida har bir talabanning o'qish va o'rganish davrida mustaqil ta'lim olishi hamda individual ta'lim trektoryasini tanlashi ta'lim jarayonini modulli ta'lim asosida tashkil etish amaliyoti qo'llanilmoqda.

Kredit-modul tizimiga asoslangan ta'lim jarayonida talabalarning individual ta'limini tashkil etishning zaruratini yoritib berishda xalqaro tan olingan "ECTS tamoyillari"ga tayanish zarur. Xususan, transferansy– bu ECTS tizimiga xohlagan shaxs yoki tashkilotning to'siqsiz kirishiga shart-sharoit yaratish. Ushbu shart-sharoit kuchli axborot targ'iboti vositasida yaratiladi, uning natijasida umumiy yangilik, aniqlik va ochiqlik muhiti shakllantiriladi.

**Agreement** - talaba bilan oliy ta'lim muassasasining ECTS koordinatorlari orasida tayyorlash mazmuni, o'qish tartibi va muddatlari, attestatsiya tadbirlari, o'quv rejalaridagi farqni bartaraf etish tartiblari haqida o'zaro kelishuvlarini anglatadi. Zamonaviy o'qitish texnologiyasi, oliy ta'lim muassasasining jihozlanganligi, professor-o'qituvchilar tarkibi faqat ilmiy darajali, Yuqori malakali kadrlardan iborat bo'lishi, o'qitishning Yuqori sifati - ECTS uchun dastlabki zaruriy talablar hisoblanadi. O'quv jarayonini tashkil etishning ushbu tizimi, o'ziga xos xususiyatlarga ega.

**Credits** - ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba tomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi.


**Ta'limning insonparvarlashuvi** - bu shaxsning turli ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishi va ta'lim jarayonida inson qobilyatining oshilishini anglatadi. ESTS ta'limni davom ettirish uchun oliy ta'lim muassasasini, o'quv fanlarini va o'qituvchilarni tanlash imkoniyatini beradi.

**Ta'limning individuallashtiruvi** - har bir talabanning individual reja va ta'lim dasturlariga ega ekanligini ifoda etadi. Talaba tanlovi asosidagi fanlar 70% ni, majburiy fanlar esa 30% dan oshmaydi. Talabanning mustaqil ish hajmi 70% ni, auditoriyadagi ishi esa 30% tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkishlar individual ta'limni tashkil etishga asos bo'lib xizmat qiladi.

**Ta'limning samaradorligi** – guruhda individual o'qitishli auditoriya mashg'ulotlari va talabanning mustaqil ishlarini uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi. Auditoriya o'quv vaqtining 70% gacha qismini individual o'qitishga, shuningdek umumiy o'quv vaqtining 70% gacha qismini mustaqil ishga ajratilishi o'quv fanlarining talabalar tomonidan o'z qobilyatlari darajasida o'zlashtirishga imkon yaratadi. Ushbu bilan ta'limning samaradorligi ta'minlanadi.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, yuqorida tavsiflangan kredit-modul tizimi jarayonida talabanning individual o'z o'zini rivojlantirish faoliyatini tashkil etish va kasbiy fazilatlarini rivojlantirish nuqtai nazaridan ijobiy natijalar berdi.

Nazariy manbalar va amaliyotdagi kuzatuvlarimiz asosida individual ta'lim muhitida talabalarni kasbiy-metodik tayyorlashning takomillashgan modelini ishlab chiqdik (2-rasm).



**2-rasm. Individual ta'lim muhitida talabalarni kasbiy-metodik tayyorlashning takomillashgan modeli**

Individuallashtirish jarayonini tadqiq qilish shuni ko'rsatdiki, inson rivojining yo'nalishi shaxsga xos xususiyatlarga ega. Shaxs rivoji-bu tashqi omillar ta'siri emas, balki shaxsning o'zi harakatga kelishi, ya'ni turli munosabatlarga chuqur jalb etilgan holda rivojlanadi.

Talabani kasbiy o'zi-o'zini rivojlantirishi - bu talabani uzluksiz o'zini-o'zi o'zgartirish, uning kasbiy rivojlanishini ongli ravishda boshqarish, kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirish maqsadlari, usullari va talabani kasbiy faoliyatining individual uslubini shakllantirishga hissa qo'shadigan vositalarini tanlash bo'yicha maqsadli faoliyatining yaxlit, ko'p komponentli shaxsiy va kasbiy ahamiyatga ega jarayonidir. O'z-o'zini rivojlantirish ilg'or tajribalarni, o'z mustaqil faoliyatini tushunishga yordam beradi va o'zini o'zi bilish va o'zini o'zi takomillashtirish vositasidir.

Oliy ta'lim muassasasi talabasi kasbiy faoliyatga tayyorlanayotganda o'z ta'lim faoliyatini individual tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Ta'limni bunday tashkil etish maxsus uslub va texnologiyani talab qiladi.

Pedagogik jarayonlarni loyihalashga qodir bo'lgan bo'lajak pedagoglarni muvaffaqiyatli tayyorlashning yana bir muhim sharti-o'qitishni individuallik tamoyiliga tayangan holda tashkil qilish. Bu tamoyilga mos ravishda talabalar o'rganadigan o'quv fanlarining (psixologik-pedagogik va xususiy metodik) mazmuni ular ongida o'quvchining rivojlanishini ta'minlovchi pedagogik jarayonning yaxlit manzarasini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Tashkiliy sharoitda o'qituvchi tomonidan dars rejasi va loyihasi haqida talabalarga ma'lumot beriladi. Ta'lim jarayoni tizimli, maqsadli tashkil etiladi. Ta'lim vositalari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Motivatsion didaktik sharoit ta'lim jarayonida talabani ichki va tashqi rag'batini shakllantirishni ta'minlaydi. Mazkur jarayonda o'quv maqsadi aniq qo'yiladi, individual xususiyatiga qarab topshiriqlar beriladi, dars yakunida refleksiya va o'z-o'zini baholash amalga oshiriladi. O'qituvchi va talaba o'rtasida do'stona va ochiq muloqot yo'lga qo'yiladi. Natijada talabalarda bilishga qiziqish, faollik va mustaqillik rivojlanadi. Konstruktiv sharoitda talabalar bilimlarni faol va mustaqil ravishda o'zlashtiradi, muammoli vaziyatlar yaratadi, loyiha va tadqiqot faoliyatini olib boradi, o'zaro hamkorlik asosida o'quv jarayoni amalga oshadi. Talabalar o'rtasida tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va metodik kompetensiya shakllanishiga erishiladi. Individual ta'lim sharoitida talabalarning ehtiyojlari hisobga olinadi, differensial o'quv topshiriqlari ishlab chiqiladi, har bir ta'lim oluvchining shaxsiy rivojlanish dinamikasi ortadi va individual ta'lim trayektoriyasi asosida mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari kengayadi. Uslubiy ya'ni metodik sharoitda ta'lim mazmuni oshadi, metod va innovatsion texnologiyalar ilmiy asosda tanlanadi, ta'lim vositalaridan samarali foydalanish ko'zda tutiladi.

Tadqiqot ishida quyidagi ta'lim tamoyillariga tayanilgan ilmiylik, tizimlilik, mustaqillik, individuallik, amaliyot bilan bog'liqlik, talaba-talabaga ustoz.

Talaba-talabaga ustoz tamoyili ta'lim jarayonida talabalarning bir-biriga bilim berish, tushuntirish va maslahat berish orqali o'qitishini nazarda tutuvchi pedagogik yondashuvdir. Bu usulda talaba faqat bilim oluvchi emas, balki bilimni yetkazuvchi va faol sub'yekt sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, har bir talabani potensialini

ochishga xizmat qiladi, o'z-o'zini anglash va shaxsiy ma'suliyatini shakllantiradi, ta'limda tenglik imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Talabalarda kasbiy metodik tayyorgarlikning sifat darajalari quyidagicha motivatsion, reproduktiv, reproduktiv, natijaning yechimini oldindan ta'minlash, produktiv ijodiy ishning natijadorligi, kasbiy-refleksiv o'z-o'zini rivojlantirish va nazorat qilish kabi ko'rsatkichlar asosida baholandi. Bu esa kasbiy-metodik tayyorgarlikning sifat darajalarini ta'minlashga xizmat qildi. Talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashganlik natijalari faoliyatli, kreativ, kognitiv, kommunikativ baholash mezonlari asosida tahlil qilindi. Talabaning rivojlanish vektori uchun sharoit yaratish, shaxs sifatidagi rivojlanishiga ko'maklashish va ularda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga ustuvorlik berildi. Natija sifatida ijtimoiy, shaxsiy, ekstremal, texnologik, kasbiy-metodik sifatlari shakllangan kompetentli mutaxassis sifatida ijtimoiy buyurtmani qondirishga tayyor, jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'shadigan kadr tayyorlashga erishildi.

